
The Distinctiveness of Literary Translation and the Role of the Translator in the Era of Artificial Intelligence and Neural Machine Translation

Jalilova Dilbar Mansur qizi
dilbarmansurovna2006@gmail.com

Student,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This article examines the distinctive nature of literary translation and the evolving role of the human translator in the era of artificial intelligence and neural machine translation. The study comparatively analyzes the capabilities and limitations of modern AI-based translation systems in rendering literary texts. Particular attention is paid to the translation of figurative language, metaphors, idiomatic expressions, cultural references, stylistic devices, emotional nuances, and the author's individual style, all of which present significant challenges for machine translation. The research also highlights the importance of human creativity in preserving aesthetic value, interpreting cultural context, making pragmatic decisions, and reproducing the artistic effect of the original text. Through the analysis of selected literary translation examples, the study identifies the similarities and differences between human and machine-generated translations and evaluates their respective strengths and weaknesses. The findings indicate that although neural machine translation significantly improves translation speed and provides useful preliminary drafts, it cannot fully reproduce the artistic, emotional, and cultural dimensions of literary works without human intervention. Literary translation requires not only linguistic competence but also creative interpretation and intercultural awareness. Therefore, the paper argues that the future of literary translation lies in a collaborative hybrid model in which artificial intelligence supports professional translators rather than replacing them, ensuring both translation efficiency and the preservation of literary quality.

Keywords

Artificial intelligence, neural machine translation, literary translation, translator, cultural equivalence, authorial style, translation studies, literary text

Sun'iy intellekt va neyron tarjima tizimlari (mashina tarjimasi) davrida badiiy tarjimaning o'ziga xosligi va tarjimonning o'rni

Jalilova Dilbar Mansur qizi
dilbarmansurovna2006@gmail.com

Talaba,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasi texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari hamda tarjimonning ijodiy roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy mashina tarjimasi tizimlarining badiiy matnlarni tarjima qilishdagi imkoniyatlari va cheklovlari qiyosiy yondashuv asosida yoritiladi. Xususan, obrazlilik, uslubiy vositalar, metaforalar, frazeologik birliklar, madaniy realiyalar, emotsional-ekspressiv ma'no va muallif individual uslubining uzatilishida sun'iy intellekt duch keladigan muammolar tahlil

qilinadi. Shuningdek, inson tarjimoni tomonidan amalga oshiriladigan pragmatik moslashtirish, estetik ta'sirni saqlash, madaniy kontekstni talqin qilish va ijodiy qaror qabul qilish jarayonlarining badiiy tarjimadagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda badiiy asarlar tarjimasidan olingan misollar asosida mashina va inson tarjimalari o'rtasidagi farqlar ko'rsatilib, ularning afzallik va kamchiliklari baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt tarjima jarayonini tezlashtirish va dastlabki variantni yaratishda samarali vosita bo'lsa-da, badiiy matnning estetik qiymati, emotsional ta'siri va madaniy qatlamlarini to'liq qayta yaratishda inson tarjimonining ijodiy tafakkuri hamon hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Shu sababli kelajakda mashina tarjimasi va professional tarjimon hamkorligiga asoslangan gibrid yondashuv badiiy tarjima sifatini oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar Sun'iy intellekt, neyron mashina tarjimasi, badiiy tarjima, tarjimon, madaniy ekvivalentlik, muallif uslubi, tarjimashunoslik, badiiy matn

Своеобразие художественного перевода и роль переводчика в эпоху искусственного интеллекта и нейронного машинного перевода

Жалилова Дильбар Мансур кизи
dilbarmansurovna2006@gmail.com

Студент,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация В данной статье рассматриваются особенности художественного перевода и роль переводчика в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта и нейронного машинного перевода. Исследование основано на сравнительном анализе возможностей и ограничений современных систем машинного перевода при передаче художественных текстов. Особое внимание уделяется переводу метафор, фразеологических единиц, культурно обусловленных реалий, стилистических средств, эмоционально-экспрессивных элементов и индивидуального авторского стиля, которые представляют серьёзные трудности для автоматизированных систем. Кроме того, обосновывается значение творческого подхода переводчика, его способности интерпретировать культурный контекст, сохранять эстетическое воздействие произведения и принимать прагматически обоснованные переводческие решения. На основе анализа примеров из художественных произведений выявляются основные различия между машинным и человеческим переводом, а также оцениваются их преимущества и недостатки. Результаты исследования показывают, что, несмотря на высокую скорость и эффективность нейронного машинного перевода при создании первоначального варианта текста, искусственный интеллект пока не способен в полной мере передать художественную ценность, эмоциональную глубину и культурную специфику оригинала. В связи с этим делается вывод, что наиболее перспективным направлением развития художественного перевода является гибридная модель сотрудничества, в

которой искусственный интеллект выступает вспомогательным инструментом, а ведущая роль сохраняется за профессиональным переводчиком.

**Ключевые
слова**

Искусственный интеллект, нейронный машинный перевод, художественный перевод, переводчик, культурная эквивалентность, авторский стиль, переводоведение, художественный текст

Kirish

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasini texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarjima amaliyotida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Zamonaviy tarjima tizimlari matnlarni tez va nisbatan aniq tarjima qilish imkonini berayotgan bo'lsa-da, badiiy tarjima hanuzgacha inson ijodkorligi va madaniyatlararo kompetensiyasini talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib qolmoqda. Badiiy asar nafaqat axborotni, balki muallif uslubi, estetik ta'sir, obrazlilik va milliy-madaniy xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi. Shu sababli metafora, ramziy ifodalar, frazeologizmlar hamda madaniy birliklarni tarjima qilishda sun'iy intellekt imkoniyatlari cheklangan. Bunday holatlarda tarjimon asarning badiiy qimmati va muallif niyatini saqlab qolishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasini davrida badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda tarjimonning ijodiy va madaniyatlararo vositachisi sifatidagi o'rnini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasini texnologiyalarining rivojlanishi badiiy tarjimaning nazariy va amaliy jihatlariga yangi yondashuvlarni olib kirdi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar sun'iy intellektning tarjima sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini e'tirof etish bilan birga, uning badiiy matnlarni tarjima qilishdagi cheklovlarini ham yoritmoqda.

Wang (2023) badiiy tarjimini sun'iy intellekt davrida alohida tadqiq etib, adabiy matnlar oddiy axborot uzatish vositasi emas,

balki estetik va madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan murakkab tizim ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, neyron mashina tarjimasini til birliklarini muvaffaqiyatli qayta ishlasa-da, asarning badiiy ruhi va muallif uslubini to'liq qayta yaratishda inson tarjimonining ishtiroki zarur bo'lib qolmoqda (Wang, 2023). Li (2023) esa sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy masalalarga e'tibor qaratadi. Tadqiqotda mualliflik huquqi, tarjimonning kasbiy mas'uliyati hamda mashina tomonidan yaratilgan tarjimalarning ishonchlilik muhokama qilinadi. Muallifning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt badiiy tarjimada yordamchi vosita sifatida samarali bo'lishi mumkin, biroq yakuniy tarjima sifati uchun mas'uliyat inson tarjimoni zimmasida qoladi (Li, 2023).

Han (2023) badiiy tarjimada to'liq tarjima qilib bo'lmaydigan (untranslatability) birliklar muammosini sun'iy intellekt nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, metafora, ramz, milliy-madaniy realliyalar va muallifning individual uslubi kabi elementlarni neyron tarjima tizimlari yetarli darajada ifodalay olmaydi. Bu esa badiiy tarjimada ijodiy interpretatsiya va madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyatini yanada oshiradi (Han, 2023). Wang (2023)ning yana bir tadqiqotida badiiy tarjimaning sun'iy intellekt sharoitidagi ijtimoiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif tarjimonni nafaqat til vositachisi, balki madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi ijodkor sifatida baholaydi. Uning fikricha, aynan inson tarjimoni asarning estetik qiymati va madaniy

xususiyatlarini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o'ynaydi (Wang, 2023).

Karpinska va Iyyer (2023) yirik til modellari yordamida amalga oshirilgan badiiy tarjimalarni tahlil qilib, sun'iy intellekt matnning umumiy mazmunini izchil yetkazishga qodir ekanini qayd etadilar. Biroq ular bunday tizimlarda badiiy uslubning soddalashuvi, obrazlilikning yo'qolishi hamda muallif ovozinig bir xillashuvi kabi kamchiliklar saqlanib qolayotganini ta'kidlaydilar. Shu sababli tadqiqotchilar mashina tarjimasini inson tarjimonining o'rnini bosuvchi emas, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholaydilar (Karpinska & Iyyer, 2023).

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt badiiy tarjima jarayonini sezilarli darajada tezlashtirayotgan bo'lsa-da, estetik ta'sir, madaniy qatlam, obrazlilik va muallif uslubini qayta yaratishda inson tarjimonining o'rne hanuzgacha ustuvor hisoblanadi. Mazkur ilmiy qarashlar ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot sifat (qualitative) tadqiqot metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqot davomida tavsifiy-tahliliy, qiyosiy va interpretativ metodlardan foydalanildi. Sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasini tizimlarining badiiy tarjimadagi imkoniyatlari hamda cheklovlarini aniqlash maqsadida zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqotning amaliy qismida badiiy asarlardan tanlab olingan parchalar inson tarjimasini va sun'iy intellekt yordamida yaratilgan tarjimalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida muallif uslubining saqlanishi, metafora va ramziy ifodalarning tarjima qilinishi, madaniy birliklarning uzatilishi hamda matnning estetik ta'sirini qayta yaratish darajasi asosiy mezon sifatida belgilandi. Olingan natijalar tarjimashunoslikning zamonaviy nazariy qarashlari asosida talqin qilinib, sun'iy intellekt va inson tarjimoni o'rtasidagi funksional farqlar hamda ularning badiiy tarjima jarayonidagi o'rne ilmiy jihatdan baholandi.

Tahlil va Tavsiyalar

Sun'iy intellektga asoslangan neyron tarjima tizimlari so'nggi yillarda grammatik aniqlik va leksik moslik jihatidan sezilarli rivojlangan bo'lsa-da, badiiy tarjimada asosiy muammo matnning estetik qiymatini, muallifning individual uslubini va madaniy qatlamini qayta yaratishda namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot doirasida uchta mashhur adabiy asar misolida sun'iy intellekt va inson tarjimasini o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi.

Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" romanida muallifning o'ziga xos uslubi paradokslar, ramziy tasvirlar va falsafiy mulohazalar orqali shakllanadi. Asarda Lord Genri nutqi ko'pincha ikki qatlamli ma'noga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi voqelikni emas, balki estetik dunyoqarashni ifodalashdan iborat. Sun'iy intellekt bunday jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri tarjima qilishi mumkin, biroq yashirin ma'no va uslubiy nozikliklarni aks ettirishda qiyinchilikka duch keladi. Inson tarjimoni esa matnning kontekstini, qahramon xarakterini va muallifning badiiy niyatini hisobga olgan holda tarjima qarorini qabul qiladi. Natijada o'quvchi nafaqat mazmunni, balki asarning estetik ta'sirini ham his qiladi. Bu holat badiiy tarjimada interpretatsiyaning til bilimidan ustun ekanligini ko'rsatadi.

Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari qisqa, sodda va ixcham uslubi bilan ajralib turadi. Bir qarashda bunday matn sun'iy intellekt uchun murakkab emasdek tuyuladi. Ammo Xeminguey uslubining asosiy xususiyati "Aysberg nazariyasi" tamoyiliga asoslangan bo'lib, matnda aytilmagan ma'nolar va psixologik qatlamlar muhim o'rin egallaydi. Mashina tarjimasini ko'pincha jumlaning bevosita ma'nosini saqlab qoladi, biroq uning ichki emotsional yukini yetarli darajada ifodalay olmaydi. Tarjimon esa qahramonning ruhiy holati, yolg'izlik, matonat va inson qadr-qimmatini ifodalovchi badiiy vositalarni hisobga olib, matnning pragmatik ta'sirini saqlashga intiladi. Demak, badiiy tarjimada soddalik ham ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotining muhim namunalaridan biri bo'lib, unda XIX asr o'zbek jamiyatining ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, oilaviy munosabatlari va milliy dunyoqarashi badiiy tasvirlangan. Mazkur asarning tarjimasi sun'iy intellekt asosidagi neyron tarjima tizimlari uchun murakkab vazifalardan biridir, chunki roman mazmuni nafaqat voqealar rivoji, balki tarixiy va madaniy kontekst bilan ham chambarchas bog'liq.

Badiiy matndagi "bek", "quad", "kundosh", "paranji", "mahalla" kabi birliklar oddiy lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, balki o'zbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi tushunchalardir. Neyron mashina tarjimasi bunday birliklarni ko'pincha mavjud lug'aviy ekvivalentlar asosida tarjima qiladi, biroq ularning ortidagi tarixiy va ijtimoiy ma'noni to'liq anglashda cheklovlar ega. Masalan, "kundosh" so'zi faqat oilaviy munosabatni bildiruvchi termin emas, balki an'anaviy jamiyatdagi ayollar o'rtasidagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Uni faqat "co-wife" tarzida tarjima qilish tushunchaning madaniy qatlamini to'liq ochib bermasligi mumkin. Shuningdek, romandagi murojaat shakllari va odob-axloq me'yorlarini ifodalovchi birliklar ham sun'iy intellekt uchun qiyinchilik tug'diradi. O'zbek tilidagi hurmat shakllari, qarindoshlik atamallari va ijtimoiy mavqeni bildiruvchi so'zlar ingliz yoki boshqa tillarda doimo to'liq muqobilga ega emas. Bunday holatlarda tarjimon nafaqat til vositachisi, balki madaniy vositachi sifatida ham faoliyat yuritadi. Inson tarjimoni asarning tarixiy davri, qahramonlarning ijtimoiy mavqei va muallifning badiiy maqsadini hisobga olgan holda tegishli tarjima strategiyasini tanlay oladi. Masalan, ayrim milliy birliklarni transliteratsiya qilish, izoh berish yoki funksional ekvivalentdan foydalanish orqali asl madaniy mazmunni saqlab qolish mumkin. Sun'iy intellekt esa bunday qarorlarni ko'pincha faqat statistik va lingvistik ehtimollik asosida amalga oshiradi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt badiiy matnning grammatik va leksik

tarkibini yuqori aniqlikda qayta ishlay olsa ham, estetik ta'sir, muallif uslubi, ramziy ma'nolar va madaniy konnotatsiyalarni to'liq tiklash imkoniyatiga ega emas. Shu sababli badiiy tarjimada sun'iy intellektni mustaqil tarjimon emas, balki tarjimon faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Tahlil natijalariga asoslanib, bir necha tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, badiiy asarlarni tarjima qilishda sun'iy intellekt dan dastlabki qoralama variantni tayyorlash vositasi sifatida foydalanish, yakuniy tahrirni esa tajribali adabiy tarjimon amalga oshirishi lozim. Ikkinchidan, neyron tarjima tizimlarini badiiy korpuslar asosida yanada takomillashtirish, ayniqsa metafora, kinoya va madaniy birliklarni aniqlash algoritmlarini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, tarjimonlarni tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari bilan bir qatorda badiiy uslubni tahlil qilish, madaniyatlararo kommunikatsiya va adabiy interpretatsiya kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Inson ijodkorligi va sun'iy intellekt imkoniyatlarining uyg'unlashuvi kelajakda badiiy tarjima sifatini oshirishning eng samarali modeli sifatida qaralishi mumkin.

Natijalar

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasi tizimlarining badiiy tarjimada muayyan afzalliklarga ega ekanligini, biroq ularning imkoniyatlari asosan matnning lingvistik qatlamini qayta ishlash bilan cheklanishini ko'rsatdi. Tahlil qilingan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" hamda Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarlari misolida sun'iy intellekt leksik va grammatik jihatdan ravon tarjima yaratishga qodir ekanligi aniqlandi. Biroq milliy-madaniy birliklar, ramziy obrazlar, metaforalar, falsafiy tushunchalar va muallifning individual uslubini qayta yaratishda sezilarli kamchiliklar kuzatildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'tkan kunlar romanidagi tarixiy va madaniy realiyalarni

tarjima qilishda inson tarjimoni kontekst va madaniy bilimlarga tayangan holda yanada aniqroq natijaga erishadi (Qodiriy, 1926). "Dorian Greyning portreti" asarida estetik va falsafiy mazmunni saqlashda, "Chol va dengiz" romanida esa yashirin emotsional ma'no hamda muallifning sodda, ammo chuqur uslubini ifodalashda inson tarjimasi sun'iy intellektga nisbatan ustun ekanligi kuzatildi (Wilde, 1890; Hemingway, 1952). Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslash natijasida ushbu tadqiqot xulosalari Wang (2023), Li (2023), Han (2023) hamda Karpinska va Iyyer (2023) tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Natijalar sun'iy intellektni badiiy tarjimada inson tarjimonining muqobili emas, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo'llash eng maqbul yondashuv ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt va neyron mashina tarjimasi rivojlanayotgan davrda badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari hamda tarjimonning zamonaviy tarjima jarayonidagi o'rnini yoritishga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalari matnning umumiy mazmunini tez va samarali yetkazishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, badiiy asarning estetik, madaniy va emotsional qatlamlarini to'liq qayta yaratishda hali ham cheklolarga ega. Oskar Uayldning "Dorian Greyning

portreti" asari misolida falsafiy tushunchalar, ramziy obrazlar va estetik qarashlarni tarjima qilishda faqat lingvistik aniqlik yetarli emasligi aniqlandi. Xemingueyning "Chol va dengiz" asari esa sodda til ortida yashiringan chuqur psixologik ma'nolarni, inson matonati va ruhiy holatini yetkazishda tarjimonning interpretativ yondashuvi muhim ekanini ko'rsatdi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tahlili esa milliy-madaniy birliklar, tarixiy tushunchalar va o'ziga xos ijtimoiy munosabatlarni tarjima qilishda inson tarjimonining madaniy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini namoyon etdi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt badiiy tarjimada samarali yordamchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin, biroq u tarjimonning ijodiy tafakkuri, madaniyatlararo sezgirligi va badiiy interpretatsiya qobiliyatini to'liq almashtira olmaydi. Kelajakdagi tarjima amaliyotida inson va sun'iy intellekt hamkorligi eng maqbul model sifatida namoyon bo'ladi. Bunda texnologiya tarjima jarayonining samaradorligini oshirsa, inson tarjimoni esa asarning badiiy qiymati, muallif uslubi va madaniy mazmunini saqlash uchun asosiy mas'uliyatni bajaradi. Demak, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida tarjimonning roli kamaymaydi, aksincha, uning vazifalari yanada murakkablashib, oddiy til vositachisidan ijodiy talqin qiluvchi va madaniyatlar o'rtasida ko'prik yaratuvchi mutaxassis darajasiga ko'tariladi.

References:

1. Hemingway, E. (1952). *The Old Man and the Sea*. New York: Charles Scribner's Sons.
2. Han, L. (2023). The untranslatability of Literature revisited in the era of artificial intelligence. *Babel*, 69(4), 564–579. <https://doi.org/10.1075/babel.00333.han>
3. Karpinska, M., & Iyyer, M. (2023). *Large language models effectively leverage document-level context for literary translation, but critical errors persist*. Proceedings of the 61st Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL), 1191–1207. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2304.03245>
4. Li, B. (2023). Ethical issues for literary translation in the era of artificial intelligence. *Babel*, 69(4), 529–545. <https://doi.org/10.1075/babel.00334.li>

5. Qodiriy, A. (1926). O'tkan kunlar. Toshkent.
6. Wang, H. (2023). Defending the last bastion: A sociological approach to the challenged literary translation. *Babel*, 69(4), 465–482. <https://doi.org/10.1075/babel.00330.wan>
7. Wang, N. (2023). Introduction: Literary translation in the age of artificial intelligence. *Babel*, 69(4), 437–446. <https://doi.org/10.1075/babel.00327.wan>
8. Wilde, O. (1890). *The Picture of Dorian Gray*. London: Ward, Lock & Co.